




ANDIJON VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

ANDIJON VILOYATINING
SANOAT ISHLAB CHIQRISHI
2024-YIL YANVAR-FEVRAL
(DASTLABKI MA'LUMOT)




Tel.: 74 228-30-42
www.andstat.uz


Andijon viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2024-yilning yanvar-fevral oylarida viloyat korxonalari tomonidan 9 569,5 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2023-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 167,4 % ni tashkil etdi.

Yanvar-fevral
mlrd. so'm



Yanvar-fevral
FHI, % da



| | | |
|--------------|---------|-------|
| Andijon sh. | 1 436,1 | 113,5 |
| Xonobod sh. | 293,0 | 98,5 |
| Oltinko'l | 222,8 | 132,4 |
| Andijon | 138,2 | 100,2 |
| Baliqchi | 185,3 | 110,1 |
| Bo'ston | 96,1 | 109,5 |
| Buloqboshi | 59,8 | 102,5 |
| Jalaquduq | 140,4 | 98,8 |
| Izboskan | 61,3 | 109,1 |
| Ulug'nor | 57,9 | 103,8 |
| Qo'rg'ontepa | 195,1 | 92,7 |
| Asaka | 6 011,4 | 194,4 |
| Marhamat | 108,2 | 104,0 |
| Shahrixon | 266,1 | 100,4 |
| Paxtaobod | 104,3 | 115,3 |
| Xo'jaobod | 193,5 | 97,3 |


mlrd. so'm

FHI, % da


Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish, hududlar kesimida

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Asaka tumanida 17 114,5 ming so'm, Xonobod shahrida 6 451,9 ming so'm, Andijon shahrida 3 027,1 ming so'm hamda Xo'jaobod tumanida 1 631,5 ming so'mni tashkil etmoqda.

Yanvar-fevral
ming so'm



Yanvar-fevral
o'sish sur'ati, % da



| | | |
|--------------|----------|-------|
| Andijon sh. | 3 027,1 | 109,8 |
| Xonobod sh. | 6 451,9 | 96,5 |
| Oltinko'l | 1 168, | 129,8 |
| Andijon | 488,2 | 98,0 |
| Baliqchi | 867,8 | 107,8 |
| Bo'ston | 1 247,0 | 107,3 |
| Buloqboishi | 394,7 | 100,4 |
| Jalaquduq | 712,7 | 96,9 |
| Izboskan | 242,7 | 107,0 |
| Ulug'nor | 912,5 | 102,2 |
| Qo'rg'ontepa | 854,8 | 91,0 |
| Asaka | 17 114,5 | 190,3 |
| Marhamat | 586,8 | 101,8 |
| Shahrixon | 829,4 | 98,2 |
| Paxtaobod | 505,3 | 112,8 |
| Xo'jaobod | 1 631,5 | 94,9 |


ming. so'm

o'sish sur'ati. % da

Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari


Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, **9 429,3** mlrd. so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi **98,5 %** ni tashkil etdi.

Hajmi, mlrd. so'm




2024-yilning yanvar-fevral oyida viloyatda jami sanoat ishlab chiqarishidagi yuqori ulush Asaka tumani (62,8%), Andijon shahri (15,0%), Xonobod shahri (3,1%), Shahrixon tumani (2,8%) hamda Oltinko'1 tumani (2,3%) hissasiga to'g'ri keldi. Shuningdek, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan yuqori FHI Asaka tumanida (194,4%), Oltinko'1 tumanida (132,4 %) hamda Paxtaobod tumanlarida (115,3 %) kuzatildi.

FHI, % da



Ulushi, % da



Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2024-yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi **57,4 mlrd. soʻmni** yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining **1,6 %** ini tashkil etdi.



Yanvar-fevral

2023-y. 51,3 mlrd. soʻm

2024-y. 57,4 mlrd. soʻm

FHI, % da

2023-y. 87,6%

2024-y. 83,9%

C seksiya

Ishlab chiqaradigan sanoat

2024-yilning yanvar-fevral oyida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi **9 429,3 mlrd. soʻmni** yoki jami sanoat mahsulotlarining **98,5 %** ini tashkil etdi.

Yanvar-fevral

2023-y. 4 838,6 mlrd. soʻm

2024-y. 9 429,3 mlrd. soʻm

FHI, % da

2023-y. 85,8 %

2024-y. 170,2 %



Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdagi mahsulotlarning o‘shish sur‘ati
O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da

| Yengil avtomobillar | | Yumshoq bug‘doy va spelta uni | | Paxta tolasi | |
|------------------------|--------|---|-------|---|---------|
| 2024 | 2,4 m. | 2024 | 48,6 | 2024 | 98,1 |
| 2023 | 53,9 | 2023 | 62,4 | 2023 | 86,6 |
| 2022 | 2,2 m. | 2022 | 93,7 | 2022 | 125,5 |
| Paxtadan yigirilgan ip | | Temir yoki po‘lat simdan matolar, panjaralar, to‘rlar | | Alyuminiydan elektr izolyatsiyasiz o‘ralgan sim | |
| 2024 | 178,3 | 2024 | 110,2 | 2024 | 3,0 |
| 2023 | 42,1 | 2023 | 161,7 | 2023 | 12,9 m. |
| 2022 | 102,3 | 2022 | 126,1 | 2022 | 34,3 |
| Neft | | 80 % dan kam bo‘lmagan etil spirti | | Paxta chigiti | |
| 2024 | 112,8 | 2024 | 123,9 | 2024 | 107,0 |
| 2023 | 140,4 | 2023 | 106,3 | 2023 | 119,2 |
| 2022 | 2,4 m. | 2022 | 58,0 | 2022 | 27,1 |

2024-yilning yanvar-fevral oyi davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 35,3 ming dona yengil avtomobil (2023-yilning yanvar-fevral oyiga nisbatan 2,4 m.ga oshgan), 6,7 ming tonna yumshoq bug‘doy va spelta uni (51,4 % kamaygan), 11 917,7 tonna paxtadan ip mahsulotlari (78,3 % ga oshgan) ishlab chiqarilgan.





Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2024-yil yanvar-fevral | 2023-yil yanvar-fevral | Farqi, +/- |
|--|------------------------|------------------------|------------|
| Yengil avtomobillar (ixtisoslashtirilmagan) - dona | 35 326 | 14 513 | 20 813 |
| Paxtadan yigirilgan ip - tonna | 11 917,7 | 4 108,8 | 7 808,9 |
| Yumshoq bug‘doy va spelta uni - tonna | 6 746,6 | 13 885,9 | -7 139,3 |
| Temir yoki po‘lat simdan matolar, panjaralar, to‘rlar va to‘siqlar - tonna | 46,5 | 42,2 | 4,3 |

Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida avtotransport vositalari, treyler, yarim tirkamalar ishlab chiqarish sohasining ulushi – 72,2 % (2023- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 233,3 %), kiyim ishlab chiqarishining ulushi – 6,7 % (2023-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 91,8 %), paxtani qayta ishlash va ip gazlama sanoatining ulushi – 16,7 % (2023-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 90,2%), oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi – 4,5 % (2023- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 110,0 %)ni tashkil etdi.

O‘tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,1 % ni (2023-yilning yanvar-fevral oylarida – 0,1 %), o‘rta-yuqori texnologiyali – 75,9 % (2023-yilning yanvar-fevral oylarida – 51,4 %), o‘rta-quyi texnologiyali – 1,8 % (2023-yilning yanvar-fevral oylarida – 5,4 %) va quyi texnologiyalisi – 22,2 % (2023-yilning yanvar-fevral oylarida – 43,1 %)ni tashkil etdi.






Metallurgiya sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2024-yilning yanvar-fevral oylarida metallurgiya sanoati 5,0 mlrd. soʻmni yoki jami ishlab chiqariladigan sanoat hajmining 0,1 % ni tashkil etib, fizik hajm indeksi esa 41,7 % ni tashkil etgan.


2023-yilning yanvar-fevral oylarida metallurgiya sanoati jami ishlab chiqariladigan sanoat hajmining 0,2 % ni va oʻtgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 49,0 % ni tashkil etgan.



Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

2024-yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga koʻra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,5 % ni tashkil etdi, oʻtgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 71,8 % ni va ishlab chiqarish hajmi 44,2 mlrd. soʻmni tashkil etdi.

2023-yilning yanvar-fevral oyida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 1,0 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 105,2 % ni tashkil etgan.



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish

2024-yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga koʻra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 4,5 % ni tashkil etdi, oʻtgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 10,1 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 425,9 mlrd. soʻmni tashkil etdi.


2023-yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 8,4 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 79,5 % ni tashkil etgan.

Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish



2024-yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko'ra, mashina va asbob uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarishning ulushi 0,7 % ni tashkil etdi, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 62,2 % ga oshgan va ishlab chiqarish hajmi 69,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.

2023-yilning yanvar-fevral oylarida mashina va asbob uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarishning ulushi 0,9 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 106,6 % ni tashkil etgan.




To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati



2024-yilning yanvar-fevral oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 8,9 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 10,5 % ga kamaygan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 854,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Shuningdek, 2023-yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 12,9 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 134,5 % ni tashkil etgan.




Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish




2024-yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko'ra, avtotransport vositalari, treyler va yarim tirkamalar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 72,2 %, fizik hajm indeksi 133,3 % ga oshdi hamda ishlab chiqarish hajmi 6 910,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Shuningdek, 2023-yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 47,5 % ni fizik hajm indeksi esa 107,9 % ni tashkil etgan.




Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish



2024-yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko‘ra, kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,0 % ni, fizik hajm indeksi 123,9 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 98,0 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

Shuningdek, 2023-yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,0 % ni fizik hajm indeksi esa 112,0 % ni tashkil etgan.


Elektr uskunalari ishlab chiqarish



2024-yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko‘ra, elektr uskunalari ishlab chiqarish ishlab chiqarish sanoatidagi ulushi 0,8 % ni, fizik hajm indeksi 118,2 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 77,7 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

Shuningdek, 2023-yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,3 % ni fizik hajm indeksi esa 75,4 % ni tashkil etgan.

Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish



2024-yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko‘ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,5 % ni, fizik hajm indeksi 119,3 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 51,9 mlrd. so‘mni tashkil etdi.


Shuningdek, 2023-yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,7 % ni fizik hajm indeksi esa 88,2 % ni tashkil etgan.

Elektr, gaz bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash,

D seksiya

Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan 2024-yil yanvar-fevral oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 42,4 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,8 % ini) tashkil etdi.


2024-yilning yanvar-fevral oylarida, sanoatning mazkur tarmog‘ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug‘ bilan ta‘minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 16,2 mlrd. so‘mga kamayganligi kuzatildi.



Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2024-yil Yanvar-Fevral | 2023-yil Yanvar-Fevral | Farqi, +/- |
|--------------------------------|------------------------|------------------------|------------|
| Elektroenergiya, mln.kVt.s | 31,1 | 38,8 | -7,7 |
| Issiqlik energiyasi, ming gkal | 0,0 | 0,4 | -0,4 |

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 19,1 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,7 % ni) tashkil etdi.




| Sanoat mahsulotlari | 2024-yil Yanvar-Fevral | 2023-yil Yanvar-Fevral | Farqi, +/- |
|--|---------------------------|---------------------------|------------|
| Tabiiy suv: Suvga ishlov berish va suv bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – mlrd. so'm, | 31,6 | 5,8 | 25,8 |
| Oqava suvlarning shlami – mlrd. so'm | 6,1 | 2,3 | 3,8 |

O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvga ishlov berish va suv bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar 31,6 mlrd. so'm yoki 2,7 m. ga ortganligi kuzatildi. Shuningdek, oqava suvlarning shlami bo'yicha xizmatlarda 6,1 mlrd. so'm hajm bajarilgan.

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishida kichik biznesning ulushi 2024-yilning yanvar-fevral oylarida

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 1 603,6 mlrd. soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 16,8 % ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida viloyatdagi Buloqboshi, Izboskan tumanlari sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishi 100 % kichik tadbirkorlik subyektlari hisobiga tashkil etilgan. Kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Andijon tumanida 82,5 %, Shahrixon tumanida 79,6 %, Baliqchi tumanida 63,1 %, Ulugʻnor tumanida 61,7 % ni tashkil etgani holda, eng past ulushli hududlar, Asaka tumani 1,5 %, Xonobod shahri 11,6 %, Andijon shahri 25,7 % ni tashkil etdi. Sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.



Andijon viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda Andijon viloyatida 11 028 ta sanoat korxonalari ro'yxatdan o'tgan bo'lib, ulardan 5 382 tasi faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 1 468 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 27,3 %) Andijon shahriga, 584 tasi (10,9 %) Andijon tumaniga, 493 tasi (9,2 %) Asaka tumaniga, 396 tasi (7,4%) Shahrixon tumaniga, 368 tasi (6,8 %) Xo'jaobod tumaniga to'g'ri kelmoqda.

| | | |
|---------------------|----|------|
| Andijon sh. | 25 | 1468 |
| Xonobod sh. | 4 | 95 |
| Oltinko'l tumani | 12 | 255 |
| Andijon tumani | 13 | 584 |
| Baliqchi tumani | 13 | 251 |
| Bo'ston tumani | 11 | 136 |
| Buloqboshi tumani | 7 | 208 |
| Jalolquduq tumani | 6 | 241 |
| Izboskan tumani | 9 | 210 |
| Ulug'nor tumani | 3 | 87 |
| Qo'rg'ontepa tumani | 7 | 211 |
| Asaka tumani | 10 | 493 |
| Marhamat tumani | 6 | 217 |
| Shahrixon tumani | 11 | 396 |
| Paxtaobod tumani | 1 | 162 |
| Xo'jaobod tumani | 5 | 368 |

Yangi tashkil etilgan

Faoliyat ko'rsatayotgan

2023-yil

122 dona

Yangi tashkil etilgan korxonalar

2024-yil

143 dona



Jami faoliyat yuritayotgan korxonalar

2023-yil

7 634 dona

2024-yil

5 382 dona